

YUKSAK MA'NAVIYATLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYASINING O'RNI

Abdullayeva Iroda – *"Alfraganus" universiteti 1-kurs magistri,*
Xikmatullayeva Aziza – *O'zbekiston Milliy universiteti 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish zaruriyati, yoshlarga bilim beruvchi, ularga axloqiy sifatlarni singdiruvchi pedagog qanday kasbiy va tarbiyaviy kompetentlikka, pedagogik mahoratga ega bo'lishi kerakligi, ularni egallash usullari, yo'nalishlari va vositalari haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kompetentlik, o'qituvchi, pedagog, tarbiya, pedagogik mahorat, pedagogik ensiklopediya, ta'lim.

Kirish

Hozirgi kunda mustaqil davlatimizning yagona maqsadi insonparvar, demokratik-huquqiy jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma'naviy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarilish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallash bo'lib, ushbu maqsadlarga erishishda ijobiy natijalarga ega bo'lish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda teran tafakkurni hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi"³, degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz deb ta'kidladilar. Demak, zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'ymoqda.

O'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

"O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ta'limning sifati va mazmunini xalqaro talablar darajasiga ko'tarish

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 28 yilligi munosabati bilan tantanali bayram tabrigidan. www.president.uz

ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bugungi kun o'quvchi-yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, keng dunyoqarash egalari sifatida shakllantirishda o'qituvchilar o'ziga xos qobiliyat va kasbiy kompetentlik egasi bo'lishini taqozo etmoqda. O'qituvchining kasbiy standarti tarkibida pedagogik kompetentlik muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda – mamlakatimizda uzluksiz ta'lim islohoti jadallik bilan olib borilayotgan paytda pedagogik kompetentlik muhim omil sifatida qaralmoqda.

Ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar, o'z navbatida, sohaning huquqiy asoslari takomillashtirilishini talab etadi. Natijada yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yilning 19 may kuni, Senat tomonidan esa 2020 yilning 7 avgust kuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 23 sentabr kuni mazkur Qonunni imzoladi¹. Mazkur yangi Qonunning qabul qilinishi esa ta'lim masalasining davlat ahamiyatiga molik bo'lgan muhim masala ekanligidan dalolat beradi. Bu Qonunlarda ta'limning tarbiya bilan uzviy bog'liqligi ta'minlanadi. Bu bilan ijtimoiy hayotimizning hozirgi bosqichida, xususan, har bir yoshni shaxs sifatida ma'rifatli kamolga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Kompetentli pedagog – u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug'iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har qanday o'qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi.

"Kompetensiya"- lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi "inson yaxshi biladigan", "tajribaga ega bo'lgan" kabi ma'nolarni bildiradi. Demak, biror bir sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi.

"Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o'xshashdir. Kompetensiya bilimlarning umumiyliigi va ularning odamlarda mavjudligini anglatasa, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi.

Kompetentlik nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi

G.V.Nikitinaning fikricha, kompetentliklar tasnifida bir nechta asoslar mavjud:

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. –T.: O'zbekiston, O'RQ-637-son, 23.09.2020 yil

- insonning umumiy kompetentligi (matematik, kommunikativ, informatsion, ijtimoiy, axloqiy va hokazo);
- faoliyat turlari bo'yicha kompetentlik (mehnat, o'quv, o'yin, kasbiy);
- faoliyat yo'nalgan obyektlar bo'yicha kompetentlik (inson-texnika, tabiat);
- ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha kompetentlik (maishiy, fuqaroviy, madaniy);
- ijtimoiy bilimlar bo'yicha kompetentlik (matematikada, gumanitar fanlarda);
- ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha kompetentlik (transport, aloqa, mudofaa);
- qobiliyatlar bo'yicha kompetentlik (pedagogik, psixologik, ijodiy, texnik).¹

Zero, yuqorida qayd etilgan kompetentlik yo'nalishlari shaxs umummadaniy kompetentligining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shuningdek, shaxs kompetentligi mazmuniga ko'ra 3 turga bo'linadi.

• **S**

- t • **Asosiy kompetensiya** – ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish
- a qobiliyati.
- n • **Yetakchi kompetensiya**– kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish
- qobiliyati.

a Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, «Pedagogik ensiklopediya»da quyidagicha izohlangan: «O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohaslarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiylatini mukammal egallagan mutaxassis»¹. Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

e 1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.

e 2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

n 3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.

i 4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

y Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogikinsonparvarlik talablariga bo'ysunishi.

—

¹ Qarang: www.natlib.uz

¹ R.G'.Safarova. R.H.Jo'rayev. Pedagogika Ensiklopediya (II jild) -T: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti. 2015 yil, 72-bet

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.
4. Pedagogiktexnika sirlarini puxta egallash.

Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir.

Natijalar

O'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Mazkur holda o'z-o'zini tartibga solish xususiyatlari o'z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o'z hatti-harakatini qat'iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi.

Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiharadi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

Pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligini tadqiq qilishga bag'ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:

- maxsus tarbiyalanganlik layoqatliligi;
- kasbiy faoliyatini etarlicha yuqori darajada egallaganlik, o'zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;
- ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatliligi;

– birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va shuningdek, mazkur kitobda qabul qilingan kasbiy muloqat uslublari egallaganlik, o'z kasbiy kasbi natijalari uchun ijtimoiy mas'ullik.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi. Yevropa davlatlarida shakllangan an'anaga muvofiq kasbiy malaka mutaxassisning kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi esa – bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi. Bu masalaga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitabida ham to'xtalib o'tgan: "Ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz"⁵.

«O'qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O'qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi. Buning uchun u:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;
- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

Pedagog kasbiy kompetentligi yo'nalishlari

Pedagogik-psixologik tayyorgarlik bo'yicha: ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'qitish shakllarining pedagogik-psixologik asoslari; psixodiagnostika usullaridan foydalanish; o'qitish shakllarida o'qitish metodlari va vositalaridan o'rinli foydalana olish; ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uyg'unligi, uzviyligini ta'minlay olish; pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslarini bilish.

Mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish mahorati bo'yicha: seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yiladigan didaktik talablarni; didaktik maqsadlar asosida mashg'ulotning har bir bosqichi uchun reproduktiv o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish; fanlararo, mavzulararo bog'lanishni amalga oshirish.

Ta'lim jarayonida tarbiyalashning didaktik omillari bo'yicha: ma'naviy-

⁵Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -T: O'zbekiston, 2021. 230-bet.

ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ilmiy-nazariy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy qadriyatlardan samarali foydalanish malakasiga ega bo'lish, o'qitish jarayonida talabalar ongiga milliy g'oyani singdirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini bilishi; talabalarni jamoaga birlashtirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, turli tadbirlar o'tkazish, pedagogik etika me'yorlarini amalda qo'llash.

Mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish bo'yicha: talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirishning ijtimoiy – pedagogik zarurati va nazariy asoslarini o'zlashtirish; iqtidorli talabalarni aniqlash diagnostikasi, mustaqil ishlarning tashkiliy va o'quv – metodik ta'minotini yaratish yo'llarini bilish, o'quv materialini mazmuni asosida vosita, metod va shakllarini samarali tanlash va uyg'unlashtira olish.

Talabalar o'zlashtirishi monitoringini amalga oshirishga tayyorlik bo'yicha: talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullari; reyting tizimi, nazorat turlari uchun differensiallashtirilgan topshiriqlarini tuza olish; bilish faoliyatidagi tipik kamchiliklar va xatoliklarni aniqlashni o'rganish.

O'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishga tayyorgarlik bo'yicha: ta'lim beradigan fanlari turkumini ilmiy-nazariy jihatdan o'zlashtirish, ularning rivojlanish tarixi, fanda erishilgan yutuqlar, muammolar, ilmiy-tadqiqot va izlanishlar natijalaridan xabardor bo'lish; darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv – metodik adabiyotlarni tahlil qilish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali va o'rniida foydalanish.

Mutaxassislik bilim, ko'nikma va malakalari bo'yicha: fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va obyekti, asosiy metodlari; fanga qo'yiladigan asosiy talablar; umumiy yuklama hajmi va uning taqsimoti; fan bo'yicha tayyorgarlik ko'rayotgan bo'lajak mutaxassisga qo'yiladigan umumiy malaka talablari; ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish, kasbiy faoliyat jarayonini tashkil etish va boshqarish; fan taraqqiyotining axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga bog'liqligi; foydalaniladigan asosiy adabiyotlar; fan bo'yicha kasbiy kompetentlik darajasi; fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog'liqligining ta'minlanganligi; fanning taraqqiy etish muammolari va yechimlarini tahlil qilish².

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak"¹.

² Qarang: www.ZiyoNet.uz

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020 yil.

Bugungi kunda o'qituvchi yoshlarni g'oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlariga ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi.

O'qituvchining pedagogik faoliyati tarkibiy qismlari

Pedagogik faoliyatning maqsadi

Pedagogik faoliyatning obyekti va subyekti

Pedagogik faoliyatning vositasi

Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi.

Pedagogik mahoratga hozirgi zamon fani nuqtayi nazaridan shunday ta'rif beriladi: Pedagogik mahorat – o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va hokazo) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati kabilar.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir².

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o'tmish qadriyatlari, O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo'lish, ilg'or xorijiy davlatlarning o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi.

Mustaqillikka erishgach, 1 oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. Mamlakatimizda an'anaviy ravishda "Yilning eng yaxshi pedagogi" Respublika ko'rik – tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. Umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlar orasidan ilg'or va tashabbuskor o'qituvchilar aniqlanib,

² Qarang: www.Ziyonet.uz

rag'batlantirilishi yosh o'qituvchilarda o'z kasbiga nisbatan hurmat va ehtirom uyg'otadi. 2006-yildan boshlab esa, "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik tanlovi o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. "Yil maktabi" – Respublika ko'rik – tanlovi o'qituvchilarga jamoa asosida ta'lim muassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni targ'ib etish uchun sharoit yaratmoqda. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik–psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Muhokama

"Pedagogik mahorat"- kompetentli o'qituvchilarni tayyorlashning asosi bo'lib, «Pedagogik mahorat» fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o'qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berib boradi.

O'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- 1) o'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi;
- 2) o'qituvchining ruhiy-psixologik tayyorgarligi;
- 3) o'qituvchining ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-nazariy jihatdan tayyorgarligi;
- 4) o'qituvchining maxsus ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

Yana ta'kidlash joizki, pedagogik mahorat o'qituvchilar hamda tarbiyachilar shaxsiy va kasbiy sifatlarining yig'indisi bo'lib, o'qituvchi mahoratini shakllantirishni ta'minlovchi omillarni, pedagogik–psixologik, metodik bilimlarni doimiy rivojlantirib borishi lozim.

Pedagogik mahoratni tashkil etuvchi komponentlari

o'qituvchilik kasbga sadoqat;

o'z fanining o'qitish metodikasini mukammal bilish;

pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olish;

pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilish.

O'qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishni ta'minlovchi omillar quyidagilar:

a) ixtisoslik bo'yicha o'quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;

b) ta'lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini obyektiv nazorat qilishi va baholashi;

d) ta'lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o'z faoliyatini tashkil etishi;

e) o'quv-tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik-psixologik va metodik ma'lumotlarga ega bo'lishi;

f) fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilishi;

g) jamoani «ko'ra bilish», o'quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ularning hayot faoliyatlarida uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo'la olish, o'z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lishi;

h) o'z shaxsiy sifatlari (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo) ni takomillashtirish malakasini egallashi.

O'qituvchining pedagogik mahorati pedagogika oliy ta'lim muassasalarida shakllanib boradi. Yuksak saviyali pedagogik kadrlar tayyorlashga nisbatan talablar, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'z kasbi bilan uzluksiz taraqqiyotga moslasha olish bo'lajak o'qituvchi umummilliy mavqeining o'sib borishini ta'minlaydi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz»¹.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Hozirgi sharoitda zamonaviy o'qituvchiqator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi, avvalo, sinfdagi tarbiyaviy jarayonning tashkilotchisidir.

“O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 4-moddasi “Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar”ga bag'ishlangan bo'lib, undagi ta'lim va

¹ Mirziyoyev SH.M.. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: «O'zbekiston», 2017. –22-6.

tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganishi² prinsiplarini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish: pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishish. Ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo'ladi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, moddiy va ilmiy–metodik yordam ko'rsatish, ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

Xulosa

Yosh o'qituvchilarning, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Ularni quyidagi vositalar asosida yanada rivojlantirish mumkin:

1. Mustaqil o'qib – o'rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan eng so'nggi yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, portal tizimi, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).

2. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (ta'lim muassasasidan chetga

chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt va iqtisodiy nuqtayi nazardan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu

² O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. –T.: O'zbekiston, O'RQ-637-son, 23.09.2020 yil
<https://www.lex.uz/docs/-5013007>

borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

3. O'qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko'nikmalarni oshirib borish.

4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar) da faol ishtirok etish.

5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirish, kasbi bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni o'rganish.

Demak, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonini sifat darajasiga ko'tarishda pedagogning kasbiy, tarbiyaviy, mafkuraviy kompetentligining o'rni beqiyosdir.

Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- zamonaviy talablarga javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi;

- ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, o'qituvchi, o'quv ustalari, texnik xodimlar)ning bilim, ko'nikma va malakalarining yuksakligi, kasbiy kompetentlik darajasining yetarlicha shakllanganligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo'lishi;

- o'quv jarayonining moddiy-texnik (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompg'yuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbobuskunalari, audio, video, multimediya, trenajyorlar, kinoproektorlar, diaproektorlar, videoproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar) jihatdan yetarlicha ta'minlanganligi;

- ijtimoiy va o'quv-texnologik jihatdan qulay muhit yaratilganligi;

- tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. –T.: O'zbekiston, O'RQ-637-son, 23.09.2020 yil <https://www.lex.uz/docs/-5013007>

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2021. 230-bet.

3. Mirziyoyev SH.M.. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: «O'zbekiston», 2017.22-6.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 28 yilligi munosabati bilan tantanali bayramdagi nutqi. www.president.uz

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020 yil.

6. R.G'.Safarova. R.H.Jo'rayev. Pedagogika Ensiklopediya (II jild) -T: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti. 2015 yil, 72-bet

7. www.Ziyonet.uz

8. www.natlib.uz

**"Innovations in Science and
Technologies"**